O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 8 - fevral 39-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 26 yanvardagi 33-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 26 yanvardagi “Toshkent tumani hududidan ichimlik suv obyektlari qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 33-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Yer kodeksining 5-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 26 yanvardagi “Toshkent tumani hududidan ichimlik suv obyektlari qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi** 33-10-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani, “Zarbdor” MFY hududida joylashgan davlat zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan qishloq xo‘jalik xaritasining 154q-konturidagi 1,0 gektar yer maydoni suv taqsimlash inshooti qurilishi uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

3. Buyurtmachiga:

Davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berilsin, hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

Loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati

tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish;

Davlat arxitektura va qurilish nazorati inspeksiyasiga xabarnoma yuborish;

Mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishini inobatga olish vazifalari yuklatilganligi ma’ulumot uchun qabul qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Toshkent tumani filiali (O.Xoldorov) mazkur qarorga muvofiq tuman yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**